

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAZAROV SOBIR USMONOVICH

**SPORT ZAXIRASINI TAYYORLASH BOSQICHLARIDAGI
O‘QUVCHILARNING PSIXOFIZIOLOGIK RIVOJLANISH DINAMIKASI**

19.00.02. – Psixofiziologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstrast of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Ssienses**

Nazarov Sobir Usmonovich

Sport zaxirasini tayyorlash bosqichlaridagi o‘quvchilarning psixofiziologik rivojlanish dinamikasi 3

Назаров Собир Усмонович

Динамика психофизиологического развития учащихся на этапах подготовки спортивного резерва 25

Nazarov Sobir Usmonovich

Dynamics of students' psychophysiological development at the stages of sports reserve training 51

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAZAROV SOBIR USMONOVICH

**SPORT ZAXIRASINI TAYYORLASH BOSQICHLARIDAGI
O‘QUVCHILARNING PSIXOFIZIOLOGIK RIVOJLANISH DINAMIKASI**

19.00.02. – Psixofiziologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P569 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hayitov Oybek Eshboyevich

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Kamoliddin Botirovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), professor,

Fayziyev Zohiddin Xasanboyevich

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa dokroti (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat univertiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «___»_____ kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; E-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tanlangan sport turlarini hozirgi rivojlanish tendensiyasida musobaqa qoidalarining borgan sari takomillashib borishi hamda olimpiya sport turlarida raqobatning o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Xalqaro olimpiya qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, «2024-yil Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan XXXII yozgi Olimpiada o'yinlarida 206 ta davlatdan 10714 nafar sportchilar 32 ta sport turidan 329 ta medal uchun musobaqalarda kuch sinashdilar. 22-yoshli suzuvchi L.Marshan va 21-yoshli sport gimnastikachi S.Okalar 3 tadan oltin, 1 tadan bronza medalni qo'lga kiritishgan bo'lsa-da, juda ko'p umidli sportchilar hech qanday natija ko'rsata olishmagan»¹. Ushbu jarayonlarda sport zaxirasini tayyorlashning barcha bosqichlarida ko'p yillik tayyorgarlikning uslubiy asoslarini ishlab chiqish orqali ularning psixofiziologik rivojlanish dinamikasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muammolar yuzaga kelmoqda. Bunda sportchilarni psixologik va fizologik tayyorlashning o'ziga xos strategiya hamda texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o'tkazish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu sport tayyorgarlik bosqichlari shug'ullanuvchilarining psixologik va fiziologik tayyorgarligini noan'anaviy uslublar va dasturlar asosida takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida o'quv-mashg'ulotlar jarayonini samarali tashkil qilish yuzasidan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada o'quvchi-sportchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, yosh sportchilarning individual va jamoaviy mashg'ulot rejasi va zamonaviy psixofiziologik texnologiyalarga tayanib sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarini takomillashtirish, sport zaxirasini tayyorlashning barcha bosqichlarida differensial yondashuvni qo'llash va sportchilarni olimpiya sport turlarida tizimli tayyorlash hamda sportchilarning psixofiziologik rivojlanish dinamikasini kuzatish bo'yicha tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda professional sportchilarni tayyorlash sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. «O'zbekiston-2030 strategiyasi»da nazarda tutilgan 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari «... Respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish, milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ... shuningdek, olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish»² kabi vazifalarni yechimiga va yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar natijasiga bevosita bog'liq. Mazkur vazifalar bo'lajak professional sportchilarning kasbiy mahoratini shakllanishiga yanada ko'proq e'tibor qaratishni, ularni keyinchalik tanlangan sport turidan yuksak natijalarni ko'rsatishlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni «sport zaxirasini tayyorlash bosqichlari»ga muvofiq

¹ <https://www.olympics.com> – Xalqaro olimpiya qo'mitasining rasmiy yangiliklari.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

ravishda psixofiziologik texnologiyalarga tayanib rivojlantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida», 2020-yil 20-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida», 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmonlari, 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son «Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 1-iyuldagi PQ-302-son «Nodavlat sport-ta'lim muassasalarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlash va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son «Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida», 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son «Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrlagi 731-son «Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori, shuningdek mazkur masalaga oid hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning I. »Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, R.A.Abdurasulov, D.N.Arzikulov, Sh.R.Barotov, A.S.Begmatov, Z.X.Fayziyev, Z.E.Gaziyeva, Z.G.Gapparov, O.E.Hayitov, B.R.Qodirov, M.Mamatov, A.M.Nazarov, Dj.Sh.Nasirov, J.A.Pulatov, A.I.Saidov, E.N.Sirliyev, A.A.Sobirov, A.O'.Xaitov, Z.Sh.Xaqiqatbekov, A.U.G'ofurov, J.B.Majidov, G'.B.Shoumarov, G.A.Yakubova va boshqalar tomonidan sportchilar faoliyati va ularning sport tayyorgarlik bosqichlaridagi o'ziga xosliklar, yuqori malakali sportchilar natijadorligi, sport pedagogik mahorati, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda turli ta'lim muassasalari o'quvchilar va talabalarining psixofiziologik rivojlanishi kabi masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Ammo sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanish dinamikasi muammosi maxsus psixologik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan A.V.Baxchina, A.M.Biliy, L.S.Bondar, Ye.G.Denisova, V.N.Yefimova, Ye.P.Ilin, V.V.Karpova, V.M.Klimov, A.R.Kovalyov, G.Korobeynikov, A.P.Kushnaryov, A.R.Luriya, N.V.Moskalenko, Yu.Ye.Moskalenko, R.M.Muftaxina, S.V.Nopin, S.Yu.Pokul, Ye.V.Fomina, L.M.Xalidova, E.Sh.Shayaxmetova va boshqalarning

ishlarida «jismoniy mashg'ulotlarga xos psixofiziologik qonuniyatlar», «psixofiziologik mexanizmlar», «harbiy xizmatchilarning ekstremal sharoitlarga moslashuvi», «moslashuvning psixofiziologik mezonlari», «o'naqaylik va chapaqaylik», «ijodiy qobiliyatlarning psixofiziologik bog'lanishlari», «assotsiatsiya testi», «jismoniy tayyorgarlik va psixofiziologik mavqe», «boks sport turidagi psixofiziologik qonuniyatlar», «shaxsning psixologik va psixofiziologik xususiyatlari», «bokschilarning psixofiziologik mavqeda yosh omillarining roli», «sportchilarning koordinatsion qobiliyatlari» kabi masalalar doirasida shaxsning professional shakllanish jarayonidagi fiziologik, biologik va psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy psixolog olimlardan W.Wundt, K.Makgonigal, Dj.Stiven, S.Navabinedjad, M.Rostami, W.You, Q.Li, L.Chen, N.He, Y.Li, F.Long, Y.Wang, Y.Chen, R.K.McNamara, J.A.Sweeney, M.P.DelBello, Q.Gong, F.Li, Q.Duan, T.Zhou, W.Shulte va boshqalar tomonidan «reaksiya vaqti», «analitik introspeksiya», «sodda rivojlanishdagi psixoanalitik psixologiya», «identifikatsiya inqirozi», «stressning ijobiy jihatlari», «psixoanalizning ijobiy jihatlari», «moslashish va o'zini o'zi moslashtirish», «katta yoshlilar iqtidori», «sport faoliyatida aql va tana uyg'unligi psixofiziologiyasi», «yuqori samaradorlikka ega mashqlarning basketbolchi psixofiziologiyasiga ta'siri», «sportchiga xos kognitiv va jismoniy ko'rsatkichlarga psixofiziologik ta'sir», «tizimli neyronlar faoliyati»ga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi va IL 402104147-raqamli «Turli ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilarida kompyuterlashgan psixofiziologik testlar bazasi yordamida psixik rivojlanishdagi o'zgarishlarni aniqlash va innovatsion korrektsionalovchi dasturni amaliyotga joriy etish» (2022-2024-y.y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanishini sport ta'limi sharoitida o'rganish va tayyorlov bosqichlariga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxslilik xislatlari va tipologiyasining sport zaxirasini «sport-sog'lomlashtirish» va «boshlang'ich tayyorgarlik» bosqichlarida shug'ullanuvchi o'quvchi-sportchilar psixofiziologik rivojlanishida aks etishini ilmiy jihatdan asoslash;

o'quvchi-sportchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligiga shaxs tipologiyasi ko'rsatadigan ta'sirni psixofiziologik xususiyatlar kontekstida empirik o'rganish;

birinchi signallar tizimi va jismoniy yuklamani bog'lovchi psixofiziologik korrelyatlarni, sport zaxirasining «sport mahoratini takomillashtirish» bosqichida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilar psixofiziologik rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini eksperimental tekshirish;

sport zaxirasini «oliy sport mahorati» bosqichidagi o'quvchi-sportchilar erishgan natijalarini differentsiatsiyalash va psixofiziologik rivojlanish kutilmalarini

ta'minlashga xizmat qiladigan ikkinchi signallar tizimini takomillashtiruvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti etib o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanish jarayoni olingan bo'lib, unda Angren shahar, Kasbi, Samarqand, Yakkasaroy tumanlaridagi sport maktablarida sport zaxirasining «sport-sog'lomlashtirish», «boshlang'ich tayyorgarlik» bosqichlarida shug'ullanayotgan 118 nafar, Respublika, Farg'ona, Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida sport zaxirasining «o'quv-mashq», «sport mahoratini takomillashtirish», «oliy sport mahorati» bosqichlarida shug'ullanayotgan 195 nafar, jami 303 nafar o'quvchi-sportchi respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini «muhitning o'sish va rivojlanishga ta'siri» qonuniyati va sport zaxirasini tayyorlash jarayonida o'quvchi-sportchilarning ontogeneza doir rivojlanish dinamikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda kuzatish, so'rovnoma usullari, G.Shmishekning «Shmishek so'rovnomasi», B.R.Qodirovning «O'zingizni bilasizmi?» metodikasi, A.N.Andreyev, M.O.Mdivani, Yu.Ya.Rijonkinlarning «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasi, Ye.P.Ilinning «Tepping-test» metodikasi, M.Lyusherning «Ranglar testi» usulidan foydanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi «t-Student mezon», «Mann-Uitni U-mezon», «Kolmorov-Smirnov mezon» kabi matematik statistika metodlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sport zaxirasining «sport sog'lomlashtirish» va «boshlang'ich tayyorgarlik» bosqichlarida o'quvchi-sportchilarni «ko'rish», «eshitish va muvozanat», «somatik hislar» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanishi shaxslilikning xarakter aksentuatsiyasi bilan identiv namoyon bo'lishi tufayli, «qo'zg'aluvchan» va «demonstrativ» tipologiyaning ustuvor ekanligi dalillangan;

sport zaxirasining «o'quv-mashq» bosqichini «texnik» va «taktik» tayyorgarlikni rivojlantirish ta'siriga ko'ra, o'quvchi-sportchilarni «harakatni boshqarish», «uyqu va bedorlik», «motivatsiya» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanish shaxslilikning temperament aksentuatsiyasi bilan integratsiyasi tufayli, o'quv-yig'in mashg'ulotlari davrida «karaxt» tipidagi sportchida «xavotirli» tipologiyani namoyon etuvchi «dixotomik» xususiyatlar ustuvorligi psixofiziologik jihatdan asoslangan;

sport zaxirasining «sport mahoratini oshirish» bosqichidagi o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanishida «sensasiya va idrok», «ochlik va chanqoqlik» kabi «ijtimoiy-biologik» dilemmalarning ustuvor xarakterda ekanligi tufayli, birinchi signallar tizimi bilan jismoniy yuklama o'rtasidagi psixofiziologik korrelyatlar to'g'ri proporsional ekanligi isbotlangan;

o'quvchi-sportchilarning sport zaxirasini «oliy sport mahorati» bosqichida erishgan natijalariga ko'ra tanlangan sport turi bilan «musobaqa oldi», «musobaqa» va «musobaqadan keyingi» davrlar muvofiqligining o'zaro bir semantik maydondagi differentsiatsiyasi «jinsiy xatti-harakatlar», «hissiyot», «ta'lim va xotira» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanish kutilmalarida ikkinchi signallar tizimi,

nutqning bevosita ustuvor ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida, sport zaxirasining «sport mahoratini oshirish» bosqichida tahsil olayotgan o'quvchi-sportchilar uchun «Fiziologiya va sport fiziologiyasi» darsligi yaratildi hamda amaliyotga tadbiq etilgan (2023-yil 26-oktabrdagi 01/1336-A/F-3/10-sonli nashr ruxsatnomasi);

O'zbekiston davlat sport akademiyasiining Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida, sport zaxirasining «oliy sport mahorati» bosqichi talabalari uchun «Sport fiziologiyasi» darsligi yaratildi hamda amaliyotga tadbiq etilgan (2025-yil 8-yanvardagi 01/25-A/F-4/6-sonli nashr ruxsatnomasi);

sport zaxirasini tayyorlash guruhlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va aprobat siya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning representativligi, empirik izlanishlar nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Mc Excel», «SPSS 20,0», «Statistica 12» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati sport maktablarida tanlangan sport turi bo'yicha o'quv-trenerovka, o'quv-yig'in mashg'ulotlarida ishtirok etayotgan o'quvchilarning psixologik va psixofiziologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi determinantlarni aniqlash, shuningdek, shaxsning kasbiy shakllanishiga qo'yiladigan talablar va tamoyillar tizimini takomillashtirish imkoniyatini berishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari o'rganilgan muammoga oid ilmiy tushunchalar va tasavvurlarni kengaytirishga, psixologik metodlarning mohiyati va mazmunini aniqlashtirib berishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy xulosalar kognitiv psixologiya va psixofiziologiya yo'nalishlaridagi keyingi tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan manzilli tavsiyalar va xulosalardan sport ta'lim tizimida sport zaxirasining tayyorgarlik bosqichlarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilar orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, O'zbekiston davlat sport akademiyasida tahsil olayotgan sportchilarga berilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmunini boyitish, «Psixofiziologiya», «Sport psixologiyasi», «Sport psixofiziologiyasi», «Sport psixodagnostikasi», «Differensial psixologiya» va «Psixologik xizmat» kabi fanlardan o'quv adabiyotlarini takomillashtirish imkoniyati bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sport zaxirasini tayyorlash bosqichlaridagi o'quvchilarning psixofiziologik rivojlanish dinamikasi bo'yicha

dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida:

sport zaxirasining «sport sog'lomlashtirish» va «boshlang'ich tayyorgarlik» sport zaxirasining «sport sog'lomlashtirish» va «boshlang'ich tayyorgarlik» bosqichlarida o'quvchi-sportchilarni «ko'rish», «eshitish va muvozanat», «somatik hislar» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanishi shaxslilikning xarakter aksentuatsiyasi bilan identiv namoyon bo'lishi tufayli, «qo'zg'aluvchan» va «demonstrativ» tipologiyaning ustuvor ekanligi dalillangan xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-son buyrug'i bilan «Psixofiziologiya», «Umumiy psixologiya» modullari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxslilik xislatlari va tipologiyasining sport zaxirasini «sport-sog'lomlashtirish» va «boshlang'ich tayyorgarlik» bosqichlarida shug'ullanuvchi o'quvchi-sportchilar psixofiziologik rivojlanishida aks etishini ilmiy jihatdan asoslashga zamin yaratilgan;

sport zaxirasining «o'quv-mashq» bosqichini «texnik» va «taktik» tayyorgarlikni rivojlantirish ta'siriga ko'ra, o'quvchi-sportchilarni «harakatni boshqarish», «uyqu va bedorlik», «motivatsiya» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanish shaxslilikning temperament aksentuatsiyasi bilan integratsiyasi tufayli, o'quv-yig'in mashg'ulotlari davrida «karaxt» tipidagi sportchida «xavotirli» tipologiyani namoyon etuvchi «dixotomik» xususiyatlar ustuvorligi psixofiziologik jihatdan asoslangan xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-son buyrug'i bilan «Psixofiziologiya», «Umumiy psixologiya» modullari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchi-sportchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligiga shaxs tipologiyasi ko'rsatadigan ta'sirni psixofiziologik xususiyatlar kontekstida empirik o'rganish ko'lami kengaytirilgan;

sport zaxirasining «sport mahoratini takomillashtirish» bosqichidagi o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanishida «sensasiya va idrok», «ochlik va chanqoqlik» kabi «ijtimoiy-biologik» dilemmalarning ustuvor xarakterda ekanligi tufayli, birinchi signallar sistemasi bilan jismoniy yuklama o'rtasidagi psixofiziologik korrelyatlar to'g'ri proporsional ekanligi isbotlangan xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-son buyrug'i bilan «Psixofiziologiya», «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» modullari mazminiga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, birinchi signallar sistemasi bilan jismoniy yuklama o'rtasidagi psixofiziologik korrelyatlarni sport zaxirasining «sport mahoratini takomillashtirish» bosqichidagi shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilar psixofiziologik rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini ekspremental tekshirishga muvaffaq bo'lingan;

o'quvchi-sportchilarning sport zaxirasini «oliy sport mahorati» bosqichida

erishgan natijalariga ko'ra tanlangan sport turi bilan «musobaqa oldi», «musobaqa» va «musobaqadan keyingi» davrlar muvofiqligining o'zaro bir semantik maydondagi differentsiatsiyasi «jinsiy xatti-harakatlar», «hissiyot», «ta'lim va xotira» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanish kutilmalarida ikkinchi signallar sistemasi, nutqning bevosita ustuvor ekanligi dalillangan xulosalar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-son buyrug'i bilan «Shaxs psixologiyasi», «Psixofiziologiya» modullari mazminiga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentabrdagi PM-207-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, «oliy sport mahorati» bosqichidagi o'quvchi-sportchilar erishgan natijalarini dinamik jihatdan differentsiyalash hamda psixofiziologik rivojlanish kutilmalarini ta'minlashga xizmat qiladigan ikkinchi signallar sistemasini takomillashtiruvchi manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsion tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 6 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**O'quvchi-sportchilar psixofiziologik rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida «psixologik fiziologiya» va «fiziologik psixologiya» fenomenlarining psixologik tadqiqotlar kontekstida bayon qilingan, «psixofiziologiya», «psixik va fiziologik chegaralar orasidagi» muammoning ilmiy-nazariy asoslari, muammoning o'rganilganlik holati, shu sohadagi olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari ilmiy-metodologik asoslari va tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar tavsifi keltirilgan.

Mazkur bob 1-paragrafida A.R.Luriya, P.K.Anoxin, V.A.Abramov, I.V.Dubrovina, G.V.Burmenskaya, O.A.Karabanova, Ye.M.Vrono, N.I.Gutkina,

D.N.Arziqulov, Z.G.Gapparov, D.B.Vaxabova, V.S.Dyundina, I.K.Kechakmadze, E.G'oziyev, T.N.Berezina, G.M.Breslav, A.S.Spivakovskaya va boshqalarning psixologiyada psixofiziologiya muammosini o'rganilishi atroflicha yoritilgan.

2-paragrafda sportchilarning psixofiziologik holatlarini o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy fiziologik tekshirish usullari va ularning fiziologik tayyorgarlik darajasiga ta'siri, shuningdek fiziologiya sohasida erishilgan muhim ilmiy-texnik yutuqlar tahlil qilingan. Xususan, bu paragrafda suzgichli manometr (qon bosimini aniqlash uchun), «qon soati» (qon oqimi tezligini baholash uchun), kimograf, pnevmatik yozuvchi qurilma – Marey kapsulasi, organlarning qon bilan to'lishini qayd etuvchi pletizmograf, mushak charchog'ini aniqlovchi ergograf, elektr signallarini qayd etish uchun inson tanasiga ulanadigan elektrodlar kabi diagnostika vositalarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, inson organizmining stress holatidagi reaksiyalarini aniqlashda foydalaniladigan poligraf (yolg'on detektor) va uning yangilangan modellari, qon bosimi, yurak urishi, nafas olish ritmlarini aniqlashda qo'llanadigan biomonitoring uskunalari ham alohida e'tiborga olingan. Bundan tashqari, miya faoliyatini o'rganishda EEGda qayd etiladigan maxsus to'lqinlar (K-kompleks, Lambda-to'lqinlar, Myu-ritmlar, Spayk va Spayk-sekinlashgan to'lqinlar) hamda ularni qayd etishning zamonaviy, nostatsionar holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan usullari tahlil qilingan.

Bobning 3-paragrafida sportchilar organizmining o'sish va rivojlanish jarayonlari, ularning sport tayyorgarligiga ta'siri morfologik va fiziologik asosda tahlil qilinadi. Psixofiziologik rivojlanish bosqichlari, xususan, markaziy nerv tizimi, suyak-mushak apparati, endokrin o'zgarishlar hamda konstitutsional morfotiplarga xos xususiyatlar yosh davrlari kesimida yoritiladi.

Dissertatsiyaning **«Sport ta'limi muassasalarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanishini empirik tadqiq etish»** deb nomlangan ikkinchi bobida sportchi shaxsi shakllanishini markaziy nerv tizimi hamda organizm shakllanish jarayonlarini gumoral yo'l bilan boshqarilish tadqiqot dasturi bayon qilingan, odam konstitutsiyasi, unga faqat bir tomonlama qarash noto'g'ri ekanligi, odam konstitutsiyasini tashkil etuvchi bir qancha belgilar asosida uni tahlil qilish masalalari asoslangan.

1-paragrafda, ya'ni sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik rivojlanishini empirik o'rganish dasturi xususan, turli sport mashg'ulot tizimlarining yosh o'quvchilarning jismoniy va fiziologik ko'rsatkichlariga hamda jismoniy-texnik tayyorgarligiga ta'siri masalalari bayon etilgan. Shuningdek tadqiqot boshqichlari hamda psixologik tadqiqot bazasi va respondentlar guruhining qisqacha ta'snifi va tavsifi, tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar tasnifi va olingan natijalar tahlillari berib o'tilgan.

«SSG» guruhida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchi turli toifadagi kattalar (oila a'zolari, uzoqlar va trenerlar) bilan muloqotga kirishar ekan, ularga nisbatan turli darajadagi munosabatlarni namoyon qiladi. Xususan, faol va ijobiy munosabatdan tortib, toki salbiy, loqayd va (yoki) sust munosabatgacha. Sababi, bolalarda nutqning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq psixik jarayon turfa xil bo'ladi. Shaxs nutqining rivojlanishi muammolariga oid ilmiy manbalarda

(A.Aksarina, P.Kaverina, Rozengart-Pupko, Tonkova-Yampolskaya, T.Tixeyeva va boshqalar) nutq «faol va sust» turlarga bo'lingan. Sust nutq degandada – u yoki bu bola katta yoshli suhbatdoshning unga so'zlayotgan gaplarini tushunib, uning turli iltimoslarini bajarib, predmetlar orasidan aytilganini olib kelsa-da, ammo o'zi tashabbus ko'rsatib so'zlamasligi tushuniladi. Faol nutq jarayonida esa bolalar tevarak-atrofidagi odamlar bilan munosabatga kirishayotgan vaqtda mustaqil ravishdagi so'zlashlari nazarda tutiladi. Demak, «SSG» guruhiga qabul qilingan bolada «trener-sportchi» diadasi munosabati, muloqotning obyekti va subyekti bo'lgan sharoitlardagina yuzaga kelar ekan. O'quvchi-sportchining trener-o'qituvchi bilan muloqoti natijasida, unda tanlangan sport turidan bo'lajak sportchining obrazi paydo bo'lib, u haqda ijtimoiy-psixologik tasavvur hosil bo'ladi. Keyinchalik ana shu obrazga qarab o'quvchi-sportchi kattalarga, shu jumladan trenerga muayyan bir munosabatni ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, «SSG»ga qabul qilingan bo'lajak sportchida muloqotga ehtiyoj kuchli bo'lishini e'tiborga olib, biz o'z tadqiqotimiz doirasiga turli sport ta'limi muassasalaridagi «trener-sportchi» diadasi o'rtasidagi o'zaro kommunikativ oraliq masofa darajalarini o'rganishni maqsad qildik. Bunda biz ta'kidlanganidek, Yu.Ya.Rijonkinning «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasidan foydalandik va natijalari quyidagi jadvalda berilgan.

1-jadval.

«TG-1» guruhi o'quvchi-sportchilarida Yu.Ya.Rijonkinning «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasi natijalari (n=59)

Tadqiqot bazalari	N	$\bar{x}$	σ	m	t	p
Angren ShSM / Kasbi TSM	30/29	0,27/0,33	0,22/0,14	0,01/0,03	-2,4	0,006

Natijalarga ko'ra, Angren ShSM o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi ($\bar{x}=0,27$; $\sigma=0,22$) Kasbi TSM sportchilariga ($\bar{x}=0,33$; $\sigma=0,14$) nisbatan sezilarli ravishda past bo'lib chiqdi ($t=-2,4$; $p=0,006$). Bu farq ko'rsatkichi bilan statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi. Bu esa Angren ShSM o'quvchi-sportchilarining trener bilan muloqotdagi yaqinlik, ochiqlik va ishonch darajasi Kasbi TSM o'quvchi-sportchilariga qaraganda statistik jihatdan pastroq ekanligini, ularning o'zaro muloqatmandligida muayyan psixologik cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday farq o'quvchi-sportchilar faoliyatidagi muhit, trener-o'qituvchining kommunikativ yondashuvi va psixologik tayyorgarlik darajasi bilan ham bog'liq.

Psixofiziologik nuqtai nazardan, Kasbi TSM sportchilarining trener bilan munosabatda yuqori ochiqlik va yaqinlikka egaligi, ularning emotsional sezgirlik, bevosita ijtimoiy idrok, hamda muomalaga tayyorlik darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi. Angren ShSMdagi kamroq ko'rsatkichlar esa, faollikning susayganligi, ishonchsizlik yoki kommunikativ to'siqlar mavjudligini anglatadi. Bu fiziologik holatda simpatik nerv tizimi faolligi pasayishi, mimik reaksiyada tejamkorlik kabi xususiyatlar bilan bog'liq.

2-jadvalda ifodalangan turli sport ta'limi muassasalardagi o'quvchi-

sportchilarning kommunikativ oraliqni o'rganish metodikasi natijalarini quyidagicha tahlil etish mumkin: Respublika OPSTTM o'quvchi-sportchilari trener-o'qituvchiga nisbatan qiziqqanlik darajasining o'rtacha arifmetik qiymati 0,53ga, o'rtacha o'rta kvadrat tarqoqlik 0,16 ga, o'rtacha xato 0,02 ga teng bo'lib, ularda o'quvchi-sportchi va trener-o'qituvchi o'rtasida Rijonkinning shkalasi bo'yicha rasmiy, ijobiy muloqot rivojlangan.

2-jadval.

«TG-2» guruhi o'quvchi-sportchilarida Yu.Ya.Rijonkinning «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasi natijalari (n=92)

Tadqiqot bazalari	N	$\bar{x}$	σ	m	t	p
Respublika / Namangan OPSTTM*	33/30	0,53/0,27	0,16/0,22	0,02/0,01	–4,2	0,001
Namangan / Farg'ona OPSTTM	30/29	0,27/0,33	0,22/0,14	0,01/0,03	–2,4	0,006
Farg'ona / Respublika OPSTTM	29/33	0,33/0,53	0,14/0,16	0,03/0,02	–5,8	0,001

Izoh: OPSTTM – Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi

Namangan OPSTTM o'quvchi-sportchilarining trener-o'qituvchi shaxsiga nisbatan qiziqqanlik darajasi o'rtacha arifmetik qiymati 0,27 ga, o'rtacha o'rta kvadrat tarqoqlik 0,22 ga, o'rtacha xato 0,01 ga teng bo'lib, ularda bu ko'rsatkichlar ushbu metodikaning salbiy, rasmiy shkalasiga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin. Namangan OPSTTM o'quvchi-sportchilarida trener-o'qituvchi bilan o'zaro kommunikativ muloqot salbiy hamda rasmiy munosabatni ko'rsatadi.

Respublika OPSTTM o'quvchi-sportchilari va Namangan OPSTTM da shug'ullanuvchi bolalar o'rtasida katta ahamiyatli farqlar mavjud ($t=-4,2$; $p<0,001$).

Farg'ona OPSTTM da tahsil olayotgan o'quvchi-sportchilar ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymati 0,33 ga, o'rtacha o'rta kvadrat tarqoqlik 0,14 ga, o'rtacha xato 0,03 ga teng bo'lib, bunday ko'rsatkichlar o'tkazilgan metodikaning rasmiy shkalasiga to'g'ri keladi, Farg'ona OPSTTM dagi trener-o'qituvchi, ya'ni maxsus fan o'qituvchilari bilan bolalar asosiy faoliyatlari rasmiy muloqotni tashkil etadi.

Farg'ona OPSTTM ning tarbiyalanuvchilari va Respublika OPSTTM da o'qib shug'ullanuvchi sportchi bolalar o'rtasidagi tafovut quyidagiga ($t=-5,8$; $p<0,001$) teng. Rijonkinning shkalasi bo'yicha kommunikativ oraliq masofa Namangan OPSTTM o'quvchi-sportchilarinikiga nisbatan «trener–sportchi» o'rtasida bir oz yaxshi. Shu o'rinda, biz, N.A.Menchinskaya va V.S.Muxinalarning mulohazalariga o'z e'tiborimizni qaratib, o'quvchi-sportchilardagi tanlangan sport turi jismoniy yuklamalariga ko'nikolmasiliklarining bosh omili bu – tevarak-atrofidagi kattalar (trener, maxsus fan o'qituvchilari)ning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, bepisandlik bilan munosabatda bo'lishlari o'quvchi-sportchi qiziquvchanligini so'ndirishga olib keladi, – deb xulosalaymiz.

Namangan OPSTTM da tahsil olayotgan o'quvchi-sportchilar va Farg'ona OPSTTM da shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilar o'rtasida yuqoridagi jadvalda ifodalanganidek ahamiyatli tafovut aniqlanmadi.

Ye.P.Ilinning «Tepping-test» metodikasi asosida (3-jadvalga qarang)

sportchilarning motor faollik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, ularning harakat tempiga oid dinamikasi «Barqaror», «So'nuvchi» va «Oraliq» tiplarga bo'lindi. Shu bilan birga, ularning 1 daqiqalik zarba soniga qarab <6000, 6000–9000, 9000–12000, va >15000 kabi zarbalar toifalari shakllantirildi.

3-jadval.

«TG-2» guruhi o'quvchi-sportchilarida Ye.P.Ilinning «Tepping test» metodikasi natijalari (n=92)

T/r	Sport turi	Sport-chilar soni	O'ng qo'l (1 daqiqa)	Chap qo'l (1 daqiqa)	Jami zarbalar	Zarbalar toifasi	Asim-metriya (%)	Harakat tipologiyasi
1.	Badiiy gimnastika	1	372	360	732	<6000	10,5	Barqaror tip
2.	Baydarka va kanoeda eshkak eshish	2	720	696	1416	<6000	10,5	Barqaror tip
3.	Boks	22	8448	7920	16368	>15000	10,5	So'nuvchi tip
4.	Dzyudo	16	5952	5760	11712	9000–12000	10,5	So'nuvchi tip
5.	Erkin kurash	9	3348	3240	6588	6000–9000	10,5	Barqaror tip
6.	Futbol	3	1044	1008	2052	<6000	10,5	So'nuvchi tip
7.	Karate-WKF	1	360	348	708	<6000	10,5	Barqaror tip
8.	Milliy kurash	3	1080	1044	2124	<6000	10,5	Barqaror tip
9.	Og'ir atletika	2	672	648	1320	<6000	10,5	So'nuvchi tip
10.	Qilichbozlik	1	372	360	732	<6000	10,5	Barqaror tip
11.	Suzish	2	720	696	1416	<6000	10,5	Barqaror tip
12.	Taekvondo	4	1392	1344	2736	<6000	10,5	So'nuvchi tip
13.	Trampolin	3	1008	972	1980	<6000	10,5	So'nuvchi tip
14.	Velosport	2	672	648	1320	<6000	10,5	Barqaror tip
15.	Yengil atletika	5	1920	1800	3720	<6000	10,5	Barqaror tip
16.	Yunon-rum kurashi	16	5760	5568	11328	9000–12000	10,5	So'nuvchi tip

Asimmetriya ko'rsatkichi barcha sportchilarda 10,5% darajasida saqlangan bo'lsa-da, bu moslanuvchanlik bilan bog'liq subyektiv ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda sport turining o'ziga xos texnik talablari (masalan, to'g'ri zarbalar, jangovarona turishlar) harakatni bir tomonlama ustuvorlikka olib kelishi mumkin. Demak, «Tepping-test» natijalariga ko'ra, sportchilardagi harakat tipologiyasi (barqaror/sunuvchi) va motor faollikning umumiy darajasi (zarbalar soni) fiziologik jihatdan mustaqil holatlarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, ko'p zarba bergan sportchi

doim ham barqaror tipda, kam zarba bergan sportchi esa so‘nuvchi tipda bo‘laveradi, degan ishchi faraz tasdiqlanmadi.

«Tepping-test» natijalaridan ko‘rinadiki, sportchilarning motor faollik ko‘rsatkichlari harakat dinamikasidagi individual farqlar bilan ajralib turadi. Ushbu individual farqlar sport turining o‘ziga xos talablari, sportchining yosh xususiyatlari hamda markaziy nerv tizimining fiziologik holati bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tahlilda sportchilar faoliyati barqaror, so‘nuvchi va oraliq tiplar kontekstida baholandi.

Natijalarga ko‘ra, barqaror tip harakat dinamikasiga ega sportchilar – jumladan erkin kurash (n=9, jami zarbalar – 6588 ta) va yengil atletika (n=5, jami zarbalar – 3720 ta) turlaridagi o‘quvchi-sportchilar hisoblanadi. Ularda motor harakatlarining 1 daqiqalik tempi o‘ng va chap qo‘lda nisbatan teng (mos ravishda – 3348 va 3240 ta; 1920 va 1800 ta) bo‘lib, umumiy zarbalar nisbatan kam, lekin muvozanatli taqsimlangan. Bu holat markaziy nerv tizimidagi faollikning muvozanatlashganligi, harakatlarni uzluksiz nazorat qilish qobiliyati va psixomotor barqarorlikning shakllanganligini ko‘rsatadi. Har ikki sport turida asimmetriya darajasi 10,5% doirasida saqlanmoqda, bu esa motor muvozanatning yaxlitligini anglatadi.

Boshqa tomondan, so‘nuvchi tipga mansub sportchilar – boks (n=22, jami zarbalar – 16368 ta), dzyudo (mos ravishda – n=16, 11712 ta) va yunon-rum kurashi (mos ravishda – n=16, 11328 ta) kabi sport turlarida faoliyat yuritadi. Ularda 1 daqiqalik o‘ng va chap qo‘l zarbalarining tempi baland (masalan, boksda 8448 va 7920 ta), lekin qisqa muddatli temp pasayishi kuzatiladi. Bu harakatlar dinamikasining pasayuvchi yo‘nalishda ekanligini, markaziy nerv tizimida funksional zaxiralar tez sarflanishi va tiklanish qobiliyati sustligini anglatadi. Har uchala sport turida ham asimmetriya darajasi 10,5% atrofida bo‘lib, bu ko‘p hollarda faollikdagi noaniqlik va qo‘llarlar aro temp nomutanosibligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, «Tepping-test» harakat tipologiyasi asosida aniqlangan natijalar sportchilarning motor faolligi va markaziy nerv tizimi holatini xolis baholash imkonini beradi. Sportchilarning harakat dinamikasi turiga ko‘ra klassifikatsiya qilinishining metodik ahamiyati shundaki, bu ularning jismoniy va psixologik tayyorgarlik darajasini baholash, mashg‘ulot dasturlarini individuallashtirish hamda tiklanish jarayonlarini optimallashtirishda asos vazifasini o‘taydi.

Bobning 2-paragrafida ixtisoslashgan idrokning, ya’ni kurashchilarda «gilamni his etish», yengil atletikadagi sakrovchilarda «plankani his etish», eshkak eshuvchilarda «qayiqni his etish», gimnastikachilarda gimnastika uskunasini «snaryadini his etish», futbolchilar, basketbolchilar, voleybolchilar hamda gandbolchilarda «to‘pni his etish», bokschilarda va qilichbozlarda «oraliq masofani his etish», yuguruvchilarda, chang‘ichilarda, suzuvchilarda, velosipedchilarda esa «vaqtni his etish», shuningdek, suzuvchilarda «suvni his etish» va hokazolarni kabi tajriba mezonlariga asoslanib, o‘quvchi-sportchi rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini psixofiziologik xususiyatlari bayon qilingan.


Sport zaxirasining «SSG» bosqichida o‘quvchi-sportchilarning «ko‘rish», «eshitish va muvozanat», «somatik hislar» yo‘nalishlaridagi psixofiziologik

rivojlanishi «yuqori hayot faolligi» (0,436) ko'rsatkichi bilan xarakter aksentuatsiyasi kontekstida identik tarzda namoyon bo'lishi natijasida, «qo'zg'aluvchan» tipologiya ustuvor ekanligi aniqlangan.

Sport zaxirasining «BTG» bosqichida esa, xuddi shu yo'nalishlar bo'yicha psixofiziologik rivojlanish «beqarorlik» (0,842) xarakter aksentuatsiyasi bilan mos tushgani sababli, ushbu bosqichda «demonstrativ» tipologiya ustuvorlik kasb etgan.

Shuningdek, sport zaxirasining «O'MG» bosqichi texnik va taktik tayyorgarlikning kuchayishi bilan bog'liq holda, o'quvchi-sportchilarning «harakatni boshqarish», «uyqu va bedorlik», «motivatsiya» yo'nalishlaridagi psixofiziologik rivojlanishi xarakterning temperament aksentuatsiyasi bilan integratsiyalashgan. Ushbu holatda, o'quv-yig'in mashg'ulotlari davomida «karaxt» tipidagi sportchilarda «yuqori xavotirli» (0,919) ko'rsatkich bilan namoyon bo'ladigan «dixotomik» xususiyatlar ustuvorligi psixofiziologik jihatdan asoslangan.

Bobning 3-paragrafida o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik faolligi hamda kommunikativ kompetensiyalaridagi individual, shaxslararo va guruhlararo farqlar aniqlangan. Xususan, 1-rasmda «Kommunikativ masofani o'lchash» metodikasi asosida «SSG» guruhiga mansub o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik faolligini ifodalovchi ballar taqsimoti (n=46) aks ettirilgan. Ushbu taqsimotda yuqori ball ko'rsatgan ishtirokchilar, ehtimol, kommunikatsiyada faolroq, tashabbuskor va emotsional barqarorlik bilan ajralib turadi. Aksincha, past ball qayd etgan sportchilarda qabul qiluvchi pozitsiyada bo'lish, charchoq, diqqat tarqoqligi yoki ichki passivlik holatlari ustun kelgan sanaladi.




1-rasm. «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasi asosida «SSG» guruhidagi o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik faolligi namoyon bo'lish natijalari (n=46)

Grafikda kuzatilgan tebranishlar va o'zgaruvchanlik mazkur guruhda kommunikativ faollik teng taqsimlanmaganligini, ya'ni kommunikativ muhitning geterogen xarakterga egaligini anglatadi. Bunday holatda individual yondashuvga asoslangan psixodiagnostik monitoring va axborot almashinuvida funksional balansga erishish zarurligi vujudga keladi. Taqdim etilgan ko'rsatkichlar metodikaning «guruh» darajadagi tahliliga mos keladi, chunki ular

ishtirokchilarning umumiy psixofiziologik faolligi, kommunikativ rollar va axborot almashinuvidagi o'zgaruvchanlik darajasini yaqqol namoyon etadi.

«OSMG» guruhida aniqlangan ballar taqsimoti, ushbu bosqichda tayyorgarlik olib borayotgan sportchilarning psixofiziologik holati yuqori va barqaror ekanligini ko'rsatadi. Grafikdagi ko'rsatkichlar 48,38 dan 81,06 gacha bo'lgan diapazonda tarqalgan bo'lib, o'rtacha qiymat 64,4 ni tashkil etadi (2-rasmga qarang). Ballar zich va nisbatan tor doirada joylashgani, guruh ichida kommunikativ faollikda yetakchilarning mutlaq ustunligi yoki keskin orqada qoluvchilarning mavjud emasligini, ya'ni ichki tarkibiy barqarorlik saqlanganini anglatadi.



2-rasm. «Kommunikativ oraliq masofani o'lchash» metodikasi asosida «OSMG» guruhidagi o'quvchi-sportchilarning psixofiziologik faolligi namoyon bo'lish natijalari (n=50)

Ushbu holat «OSMG» guruhida axborot almashinuvi, tashabbuskorlik va emotsional barqarorlik singari ko'nikmalarning shakllanganini, shuningdek funksional liderlik salohiyatining umumiy jamoaviy faollik bilan mutanosib rivojlanganini ko'rsatadi. Barcha ishtirokchilarda ichki psixik tayyorgarlik, muvozanat va ijtimoiy-psixologik uyg'unlikning yuqori darajada shakllangani kuzatiladi. Grafikdagi silliq, barqaror dinamika, keskin ko'tarilish va pasayishlarning yo'qligi, ushbu guruhda kommunikativ jarayonlarning samarali tashkil etilganini, ya'ni axborot almashinuvidagi o'zaro muvofiqlik va hamkorlikning yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bularning barchasi «OSMG» guruhidagi sportchilarda psixofiziologik tayyorgarlik darajasi yuqori ekanini, o'zini boshqara olish qobiliyati va jamoaviy aloqada faol ishtirok etish kompetensiyasi shakllanganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **«Sport ta'limi muassasalarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi asosida psixofiziologik rivojlanishini diagnostika qilish»** deb nomlangan uchinchi bob o'z ichiga, sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida beriladigan jismoniy yuklamalar keltirib chiqaradigan psixofiziologik zo'riqlashlarning birinchi signallar tizimi rivojiga ta'sirini psixologik xususiyatlari hamda sport ta'limi muassasalarida shug'ullanayotgan o'quvchi-sportchilardagi ustuvor his-tuyg'larning psixofiziologik xususiyatlarini diagnostikalash natijalari aks ettgan ma'lumotlarni qamrab oladi.

Bobning 1-paragrafida sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida beriladigan jismoniy yuklamalar keltirib chiqaradigan psixofiziologik zo'riqlarning birinchi signallar sistemasi rivojlanishiga ta'sirini psixologik xususiyatlari (yunon-rum kurashi misolida) bayon etilgan. Psixologik holatni baholashda M.Lyusherning «Ranglar testi» ni modifikatsiya qilingan variantidan foydalanildi.

Test natijalari ranglarni reyting tartibida tanlash va juftlikda taqqoslash metodlari orqali tahlil qilindi va tadqiqot ishimiz (4-jadvalga qarang) 2022-yilda xorijda o'tkazilgan G.Korobeynikov tadqiqotlari natijalari bilan qiyosiy tahlillandi. Xorvatiya, Ukraina va O'zbekiston terma jamoalaridagi yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining M.Lyusherning «Ranglar testi» natijalari asosida olib borilgan tahlil, ularning emotsional holati va psixofiziologik tayyorgarlik darajasidagi farqlarni aniq ko'rsatdi. Tahlil natijalari shundan dalolat bermoqdaki, sportchilarning psixologik holati ko'p omilli va murakkab tabiatga ega bo'lib, individual xususiyatlardan tashqari tayyorgarlik jarayonining mazmuni ham katta ahamiyat kasb etadi.

4-jadval.

M.Lyusherning «Ranglar testi» bo'yicha turli terma jamoalar yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining ko'rsatkichlari (mediana, pastki va yuqori kvartillar; n=62)

Ko'rsatkichlar	Xorvatiya terma jamoasi (n=12)	Ukraina terma jamoasi (n=20)	O'zbekiston terma jamoasi (n=30)
Ruhiy ish qobiliyati	10,84 (7,34; 13,63)	10,36 (8,54; 12,67)	10,45 (8,72; 12,40)
Charchashga moyillik	2,36 (1,53; 4,45)	3,73* (1,45; 5,76)	3,10* (1,87; 4,92)
Xavotirlilik	2,62 (0,23; 5,67)	1,57* (0,16; 4,56)	1,93* (0,44; 4,78)
Autogen me'yorlardan chetga chiqish	14,54 (8,34; 22,83)	15,73 (10,63; 19,78)	14,80 (9,12; 20,47)
Ekssentriklik	9,56 (4,63; 12,96)	8,84* (6,67; 10,73)	8,22* (6,10; 10,85)
Konsentriklik	8,52 (6,67; 9,87)	8,52 (6,76; 10,78)	8,60 (6,90; 10,40)
Vegetativ koeffitsient	16,65 (9,74; 19,87)	14,43* (11,32; 17,87)	15,10 (10,45; 18,20)
Geterogenlik	7,43 (5,65; 8,54)	6,50* (5,65; 8,53)	6,85* (5,72; 8,46)
Avtonomlik	10,87 (8,76; 11,45)	10,34 (8,54; 11,51)	10,60 (8,88; 11,33)

Izoh: * – p=0,05 darajasida terma jamoalar o'rtasidagi farqlar uchun statistik ahamiyatli

«TG-2» guruhi sanalgan O'zbekiston terma jamoasi sportchilarida «Ruhiy ish qobiliyati» yuqori darajada shakllangan bo'lib (10,45), bu holat ularning emotsional barqarorlik va intellektual ish qobiliyatining samaradorligini ta'minlab turganligini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkich G.Korobeynikov tadqiqotlaridagi Xorvatiya (10,84) va Ukraina (10,36) jamoalari bilan taqqoslaganda muvozanatlashgan holatni aks ettiradi.

«Charchashga moyillik» darajasi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasida qayd etilgan ko'rsatkichlar (3,10*) statistik jihatdan Xorvatiya (2,36) jamoasiga nisbatan yuqori ekanligi, ushbu jamoa sportchilarining tayyorgarlik jarayonidagi yuklama darajasi va tiklanish mexanizmlarining samarasiz tashkil etilganligi, organizmda ortiqcha zo'riqlash holatini yuzaga keltirganligini ko'rsatadi. «Xavotirlilik» darajasiga

doir ko'rsatkichlarda Ukraina va O'zbekiston sportchilarida xavotir holati (mos ravishda – 1,57*↓; 1,93*↓) Xorvatiya (2,62) jamoasiga nisbatan sezilarli darajada past bo'lgan. Bu holat O'zbekiston jamoasi («TG-2» guruhi) da psixoemotsional barqarorlikning yuqori ekanligini, musobaqa oldida stressni nazorat qilish qobiliyati yetarli darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

«Autogen me'yorlardan chetga chiqish» ko'rsatkichi har uch jamoada taxminan bir xil darajada qayd etilgan bo'lib, ularning emotsional-ixtiyoriy sohasi va ichki ruhiy holatlarida sezilarli farq yo'qligini bildiradi.

«Ekssentriklik» ko'rsatkichi bo'yicha ham «TG-2» guruhi sanalgan O'zbekiston jamoasi (8,22*↓)ning natijasi Ukraina va Xorvatiya jamoalariga (mos ravishda – 9,56↑; 8,84*↑) nisbatan past ko'rsatkich qayd etgan. Bu ularda shaxsiy muvozanat, vaziyatlarga moslashuvchanlik va emotsional nazorat darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. «Konsentriklik» ko'rsatkichi uchala jamoada deyarli bir xil darajada bo'lib, shaxsning ichki nazorat, ta'sirchanlik va o'zini boshqarish qobiliyatida farq sezilmaydi.

